

## **Talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklsh tartibi bo‘yicha yo‘riqnomasi.**

### **1) Respublika oliv ta’lim muasasalaridan o‘qishni ko‘chirish**

Bunday holda talabaga faqat 2 ta vaziyatda ruxsat beriladi:

1) talaba oila qursa va turmush o‘rtog‘i doimiy yashaydigan hududidagi OTMga ko‘chmoqchi bo‘lsa;

2) davlat xizmatchisi, ish yuzasidan boshqa hududga ko‘chsa va turmush o‘rtog‘i yoki voyaga yetmagan farzandining o‘qishini o‘sha hududga ko‘chirmoqchi bo‘lsa (ishga qabul qilingan vazirlilik xati asosida).

**o‘qishini ko‘chirish kuzgi semestr bo‘yicha arizalarni taqdim etish — har yili 15-iyuldan 5-avgustga qadar amalga oshiriladi;**

**o‘qishini ko‘chirish bahorgi semestr bo‘yicha ariza topshirish — har yili 20-dekabrdan keyingi yilning 20-yanvariga qadar;**

**✗ Boshqa holda “ichki perevod”ga ruxsat yo‘q**

### **2) Xorijiy va nodavlat universitetlaridan o‘qishni ko‘chirish**

**Xorijiy va nodavlat universitetlaridan o‘qishni ko‘chirish** bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

1) mos va turdosh yo‘nalishga test yoki ijodiy imtihon topshirish hamda o‘tish balini to‘plash talab etiladi.

2) o‘tish balini to‘play olmagan talabalar uchun tabaqalashtirilgan (super-kontrakt) to‘lov-shartnoma shartlari asosida o‘qishini ko‘chirishga ruxsat beriladi;

3) mos va turdosh bo‘lmagan yo‘nalishga o‘qishni ko‘chirishga ruxsat berilmaydi.

**o‘qishini kuzgi semestriga bo‘yicha arizalarni taqdim etish — har yili 15-iyuldan 5-avgustga qadar amalga oshiriladi;**

!! Test o‘tgach, har bir talabaning hujjati qayta tekshiriladi. Kimdir “xorijda o‘qiyapti” degan soxta hujjat tayyorlagan bo‘lsa, natijalar bekor qilinadi va prokuraturaga soxta hujjat tayyorlash fakti yuzasidan murojaat etiladi.

### **3) Davlat OTMdan nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish**

Buni davlat nazorat qilmaydi, buning tartibini nodavlat OTMlarning o‘zi mustaqil belgilaydi. Nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish mumkin yoki mumkin emasligini o‘sha OTMning o‘zidan aniqlashtiring.

**4) Bir OTM doirasida, yo‘nalish, fakultet, ta’lim shakli yoki ta’lim tilini o‘zgartirish:**

Ushbu masala OTM rektori tomonidan hal qilinadi. Bunda ko‘chirilayotgan yo‘nalishning mos va turdoshligi, ko‘chirilish sababi, OTM imkoniyatlari va boshqa faktorlar inobatga olinadi.

O‘qishni ko‘chirish uchun B2 yoki C1 darajasiga tenglashtirilgan til bilish sertifikati talab qilinadi.

*Asos: O‘zbekiston davlat johon tillari universiteti 29.08.2024 yildagi Kengash qarori.*

**5) Talabalar o‘qishini qayta tiklash bo‘yicha arizalarni topshirish va ko‘rib chiqish bir yilda ikki marotaba amalga oshiriladi:**

o‘qishini kuzgi semestrga qayta tiklash bo‘yicha ariza topshirish — har yili 15-iyuldan 5-avgustga qadar;

o‘qishini bahorgi semestrga qayta tiklash bo‘yicha ariza topshirish — har yili 20-dekabrdan 20-yanvarga qadar davom etadi.

Arizalar quyidagi saytlar orqali qabul qilinadi:

**transfer.edu.uz** — respublikaning bir OTMdan boshqa OTMga yoki bir OTM doirasida, **Bir** OTM doirasida, yo‘nalish, fakultet, ta’lim shakli yoki ta’lim tilini o‘zgartirish, o‘qishni qayta tiklash;

**my.uzbmb.uz** — xorijiy va nodavlat oliy ta’lim muassasalaridan davlat OTMlariga;



**Kerakli hujjatlar:**

- ariza (onlayn tarzda);
- transkript yoki reyting daftarchasi (JPEG yoki Pdf shakli);
- akademik ma’lumotnomma (o‘qishni tiklovchilar uchun).

*Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi hamda O‘zbekiston davlat johon tillari universiteti 29.08.2024 yildagi Kengash qarori.*

**!!!! Saytda bilan muamolar va qo‘shimcha savollar tug‘ulsa rektorat binosi 017-xona Talabalar bilan ishalash bo‘limiga murojat qiling.**

